



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
DAVLAT TEST MARKAZI

**REPETITSION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN**

**TEST TOPSHIRIQLARI  
KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo \_\_\_\_\_

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval kitobni varaqlab, unda har bir fan bo'yicha 30 ta topshiriq mavjudligini tekshiring. Agar topshiriqlar soni kamliqi aniqlansa yoki kitob raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya nazoratchisiga ma'lum qiling.

Test topshiriqlari kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

**33**

**FANLAR:**

- |                                 |                           |
|---------------------------------|---------------------------|
| 1. <i>Ona tili va adabiyoti</i> | <b>1-30</b> topshiriqlar  |
| 2. <i>Biologiya</i>             | <b>31-60</b> topshiriqlar |
| 3. <i>Kimyo</i>                 | <b>61-90</b> topshiriqlar |

Kitob raqami: **1906989**

Toshkent – 2018



## ONA TILI VA ADABIYOTI

1. Qaysi gap imlosida fonetik o'zgarishlarning ikki turi yuz bergan?

- A) Qushlar sovuq kunlar boshlanishi bilan issiq o'lkalarga uchib ketarkan.
- B) Yuragida o'ti bor odam shunday go'zal tabiat manzarasini ko'rib jim turolmaydi.
- C) Shunaqa, bolam, odam yig'lab-yig'lab marza olsa, kulib-kulib sug'orar ekan.
- D) Shunisi borki, yarador oyog'i ko'proq lat yegan bo'lsa kerak, u qop ko'targanda qiyinalib yurdi.

2. Qaysi gap imlosida olti o'rinda fonetik o'zgarish yuz bergan?

- A) Keyinroq ham ko'zimiz tushib turardi, biroq endi u shunday bir yuksakklikda va qamrovi shu qadar keng ediki, bu kengliklar bizga o'xshash jo'n odamlarning shuuriga sig'masdi.
- B) Shunday bo'lmon'iga asos bor edi, chunki ular bir ko'chada yashab, o'sib-ulg'aygan edilar, bunisining asrori unisiga besh qo'lday ayon edi.
- C) Bu falokatga yo'liqqan odamning jon achchig'idagi qichqirig'i edi, ammo Bill qayrilib ham qaramadi.
- D) Meniki-seniki deb tortishib, necha marta burni qonadi hamki, og'zini tiyolmadi.

3. Berilgan so'zlardan nechtaси imlo qoidasiga ko'ra noto'g'ri yozilgan?

- halqum, habash, xokisor, hashorat, tadqiqot, tadbiq
- A) 4 ta
  - B) 2 ta
  - C) 5 ta
  - D) 3 ta

4. Qaysi so'zlar ham ko'p ma'noli, ham shakldosh so'z hisoblanadi?

- A) dunyo, asl, ilik
- B) yoq, to'da, asil
- C) shox, tovon, es
- D) chopmoq, rasta, bardam

5. Quyidagi qaysi gap(lar)da o'zaro shakldosh qo'shimchalar qatnashmagan?

1. Alisher uysa kirishi bilan qolganlar jim bo'lishdi.
2. Agar sen olgan qarzingni o'z vaqtida qaytarsang, ularning ham senga bo'lgan ishonchi ortar edi.
3. Uchoving bu vazifani uddaladeng.
4. Sen ham meni shoshirmsandan ishni bitirsang bo'lardi.

- A) faqat 4
- B) 3, 4
- C) 1, 3
- D) 2, 3, 4

6. Terakzorlar xushbichim, bog'larda hamma yoq jim.

- Gapda nechta so'z turkumiga oid yasama so'zlar qo'llangan?
- A) 1
  - B) 3
  - C) 4
  - D) 5

7. Quyidagi misralardagi ot tukumiga oid yasama so'zlar sonini aniqlang.

- Aqldan g'amginlik, shodlik, o'ktamlik,  
Aqldan borlig-u yo'qlig-u kamlik.

- A) 5 ta
- B) 7 ta
- C) 6 ta
- D) 4 ta

8. Oltin tuproq,  
Zumrad dalam,  
Ipak karvon,  
Olmos qal'am  
Kuzda ketgan qushlari ham  
Bahor qo'msab qaytgan ayvon –  
O'zbekiston, O'zbekiston!  
Ushbu she'riy parchada ot turkumiga mansub so'zlar necha o'rinda aniqlovchi vazifasida kelgan?

- A) 5
- B) 4
- C) 2
- D) 3

9. Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi.

Ushbu qoidaga mos keluvchi so'z ishtirok etgan gapni aniqlang.

- A) Uyasi tomon sudralgan toshbaqani sekin turtib ko'rdi.
- B) Ariq bo'yida otquloqlar endigina ko'ringan edi.
- C) Senga o'xshash quyonyuraklar bilan do'stlashmayman.
- D) Hovlida o'sgan sadarayhonlar shamolda mayin tebranardi.

10. Siz bilan biz bir yillik oilaviy faoliyatimiz natijasida qanday yutuqlarga erishdik? ... Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, biz u yoki bu masalada yuz beradigan prinsipial

kelishmovchiliklarni chetdan kuch jalg qilmasdan o'z kuchimiz bilan, o'zaro keng muhokama qilish yo'li bilan bartaraf qiladigan bo'lib qoldik. ... O'rtoq rafiqam, oilamizni tashkiliy xo'jalik jihatidan misli ko'rilmagan darajada mustahkamladik. (Abdulla Qahhor)

Berilgan pachada olmoshning necha turi ishtirok etgan?

- A) 3
- B) 6
- C) 5
- D) 4

11. Qaysi javobda quyida keltirilgan parchadagi fe'llar nisbati to'g'ri ko'rsatilgan?

Hasanali bekning yechinib yotishini kutib turardi, chunki uni yotqizib, yoqilgan sharmi o'zi bilan narigi xonaga olib chiqmoqchi edi. (A.Qodiriy)

- 1) aniq nisbat;
- 2) o'zlik nisbat;
- 3) birgalik nisbat;
- 4) orttirma nisbat;
- 5) majhul nisbat

- A) 1, 2, 3, 4, 5
- B) 1, 3, 4, 5
- C) 1, 2, 4, 5
- D) 1, 2, 3, 4

12. Berilgan gapdagи uyushiq bo'laklar tobelangan hokim bo'lak qaysi so'z turkum(lar)i bilan ifodalangan?

Pufpuflab, avaylab, og yuvib, og tarab o'stirayotgan farzandlarining orzu-havasini ko'rishdan, ularning kelajakda baxtli bo'lishidan umidvor odamlar, yigit va qizlar bu haqda chuqur o'lab, mushohada qilib ko'rishlari lozim.

- A) faqat fe'l
- B) fe'l, sifat
- C) faqat ot
- D) ot, fe'l

13. Qaysi javobda vazifadosh biriktiruv bog'lovchilari keltirilgan?

- A) -u, -yu, -da, ba'zan
- B) -u, -yu, -da, balki
- C) -u, -yu, -da, na ... na
- D) -u, -yu, -da, bilan

14. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklamaga oid birliklar qatnashgan gapni belgilang.

- A) Yuragini ezib turgan bu ezgin o'y-u fikrlar bilan chalg'ib, kech tushganini ham sezmay qolibdi.
- B) Yozuvchining vazifasi faqat yaxshi asarlar yozish, xalq dilining tarjmoni bo'lish bilan cheklanmaydi.
- C) Yaxshilarni mahv etgan tuhmat va ig'vodan oldin yomonlarning chirkin qalbida hasad o'ti yongan.
- D) Boshqalar qatori o'zbek adabiyotida millatning o'ziga xos olami chuqur hamda ishonarli tasvirlangan asarlar bor.

15. Milliy qadriyatlarimizning mazmuni va mohiyatini chuqur, batafsil o'rganishga harakat qilaylik.

Ushbu gapda nechta bitishuylı so'z birikmasi mavjud?

- A) 1ta
- B) 4ta
- C) 2ta
- D) 3ta

16. Amu bilan Sirdan suv ichgan,

Zarafshonni loylatib kechgan

Chavandozlar bordir bu elda.

Ushbu gapdagи uyushgan bo'laklar qaysi bo'laklarga tobelangan?

- A) aniqlovchi, to'ldiruvchi
- B) aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol
- C) hol, to'ldiruvchi
- D) aniqlovchi, ega

17. Ba'zi paytlarda yoshligimning unutilmas damlarini esga olaman. Bolalikdag'i o'ynoqi damlarni sog'inaman. Meni o'tloqlarda dumalatgan, chang ko'chalarda o'ynatgan damlarni unutolmay qignalaman.  
Ushbu parchada tovush tarkibi o'zgargan fe'ldan yasalgan yasama so'z(lar) qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?  
A) aniqlovchi, kesim B) kesim C) aniqlovchi  
D) aniqlovchi, hol
18. Qaysi javobda uyushgan sifatlovchi aniqlovchi haqidagi to'g'ri fikrlar ko'rsatilgan?  
1. Narsa-buyumlarning bir turdag'i belgilarini bildirgan birdan ortiq sifatlovchi uyushib kela oladi.  
2. Uyushiq aniqlovchilar aniqlanmishta baravar tobe bo'ladi.  
3. Narsa-buyumlarning turli belgilarini bildirgan birdan ortiq sifatlovchi uyushib kela olmaydi.  
4. Uyushiq sifatlovchi aniqlovchilar o'zaro sanash ohangi bilan teng bog'lanadi.  
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 3, 4
19. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xsharki, uni ko'rgan kimsa nazarini olib qochadi.  
Berilgan gap turini aniqlang.  
A) sodda yoyiq gap B) egasi yashiringan sodda yoyiq gap  
C) shaxsi umumlashgan sodda yoyiq gap  
D) ergashgan qo'shma gap
20. Har bir gapi tarkibida yasama so'z(lar) qatnashgan bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gapni aniqlang.  
A) Yurak baquvvat bo'lsa, ish unumli bo'ladi va kishi charchoq nimaligini bilmaydi.  
B) Kimki ko'p o'qisa, u bilimli bo'ladi, dunyoqarashi kengayadi, mustaqil fikrashga odatlanadi.  
C) Tashqarida shamol chiyillar, zalvarli havo to'lqinlari vagonga urilar, tunuka tomonning allaqayeri "qirs-qirs" etib qo'yardi.  
D) Mehnat yaxshi tashkil qilingan bo'lsa, jamoa a'zolari o'rtaida ahillik va hamjihatlik bo'lsa, yashash ham zavqli bo'ladi.
21. Birdan tush kabi uzuq-yuluq xotiralar yopiriladi// yuragim gursullagancha o'rnimdan turb ketaman.  
Ushbu gapda // belgisi o'rniga qanday tinish belgisi qo'yiladi?  
A) vergul B) tire C) ikki nuqta D) nuqtali vergul
22. "Alpomish" dostonida Boychibordan ko'ngli to'lmanan Alpomishga qaysi qahramon "Xafa bo'lma, bu oting, balki tulpor chiqar, yomon dema. Bu oting nazarkardadir. Buni mingan odam ko'p yerlarni ko'radi, maqsadini haqdan topib qoladi", deya uning ko'nglini ko'taradi?  
A) Shohimardon pir B) Qultoy C) Boybo'ri  
D) Qaldirk'ochoyim
23. "Kitobimni o'qigan, ko'rgan, eshitgan kishi shohimni duo bilan yod qilsin deb (yozdim). Kelgusi avlodlar uchun uning nomi mangu esdalik bo'lsin deb (yozdim). Uning muhabbat bilan ko'ngillar to'lib, yodi bilan dunyo to'lsin deb (yozdim)... Men buni muhabbatimni yaxshi, (tugal) bilsin deb shohimga tortiq qildim".  
Ushbu parchada muhabbat bilan tilga olingan shoh kim?  
A) Nosiruddin To'qbo'g'a  
B) Abdulqosim Abdullo binni Muhammad al-Muqtado  
C) Dod Sipohsolorbek  
D) Muhammad Xo'jabek
24. Kiyurdi ilgiga davron nagine,  
Nigun o'rnida la'li otashine.  
Ushbu misralar Alisher Navoiyning qaysi qahramoni haqida?  
A) Farhod B) Iskandar C) Xusrav D) Bahrom
25. Onalar qizlarini "Yilqili va qo'yli kishiga tushub, et yeb, qimiz ichib boshingga yomon kunlar to'g'g'ay" deb qarg'ashlari haqida qaysi asarda yozilgan?  
A) "Boburnoma" B) "Oq kema"  
C) "Asrga tatigulik kun" D) "Shajarayi turk"
26. Qaysi javobda nomi keltirilgan she'rni Usmon Nosir Boltiq va Oq dengiz bo'ylariga safari chog'ida yozgan?  
A) "Yo'ichi" B) "Yurganmisiz birga oy bilan"  
C) "Balaligimda" D) "Yur tog'larga chiqaylik"
27. "Yozuvchi qo'lyozma ustida jiddiy ishlab, 1939-yilda asarni yozuvchilar uyushmasida muhokama qildirdi. Muhokama chog'ida ayrim kishilar adibni asarga inqilobchi kuchlarni, rus proletariat vakillarini kiritmaganlikda aybladilar".  
Ushbu parcha qaysi romanning yozilish tarixiga oid?  
A) "Sarob", Abdulla Qahhor B) "Ufq", Said Ahmad  
C) "Qutlug' qon", Oybek D) "Oltin zanglamas", Shuhrat
28. "Sohibqiron" dramasida Rum sultonni Yeldirim Boyazid asir olingani haqidagi xushxabarni keltirgani uchun Amir Temur kimga bir nabirasini nikohiga berishini va'da qiladi?  
A) Barlos Bahodirga B) Buqalamunga  
C) yasovul Qosimbekka D) Aloviddinga
29. "Yaxshi odam ko'p so'raydi, ammo oz bersang ham rozi bo'ladi. Yomon odam oz so'raydi, ammo ko'p bersang ham rozi bo'lmaydi".  
Ushbu parcha qaysi asardan olingen?  
A) "Hayrat ul-abror", Navoiy B) "Nasihatlar", Abay  
C) "Zarbulsasal", Gulxaniy  
D) "Mahbub ul-qulub", Navoiy
30. Tanosub, tashbeh va tazod san'atlari qo'llangan bayt berilgan javobni belgilang.  
A) Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim, Ko'rub rahm aylagil, ey lola rux, bu chehrayi zardim.  
B) Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul, Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul.  
C) Ul husn-u jamoling o'ti Mashrabg'a tushubdur, Parvonasifat kuydi, parizod, eshicingda.  
D) Jamoling vasfini qildim chamanda, Qizordi gul uyottin anjumanda.

## BIOLOGIYA

31. Transkripsiya jarayoni haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.  
A) Uratsil ribonukleotidlarining adenin ribonukleotidlariiga komplementarligi asosida ro'y beradi.  
B) Oq po'panak hujayrasida bu jarayon faqat sitoplasmada sodir bo'ladi.  
C) Energetik almashinuv reaksiyasi hisoblanadi va ATP energiyasi sarflanadi.  
D) Timin dezoksiribonukleotidlariiga adenin ribonukleotidlariining komplementarligi asosida ro'y beradi.
32. Qaysi javobda turli sistematik guruhlarga kiruvchi hayvonlar va o'simliklar orasida qon-qardoshlik borligini namoyon qiluvchi organizmlar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) o'simliklar bilan hayvonlar o'rtaida; 2) qirqqulqlar bilan ochiq urug'lilar o'rtaida; 3) sudralib yuruvchilar bilan qushlar o'rtaida; 4) sudralib yuruvchilar bilan sute nimizuvchilar o'rtaida;  
a) bakteriyalar; b) arxeopteriks; c) psilofitlar; d) urug'li qirqqulqlar; e) yashil evglena; f) stegosefal; g) yirtqich tishli kaltakesak  
A) 1-e; 2-d; 3-b; 4-g B) 1-e; 2-c; 3-g; 4-b  
C) 1-a; 2-d; 3-f; 4-g D) 1-a; 2-c; 3-b; 4-g

- 33.** Qaysi moddalar parchalanishining kuchayishiga organizmnning qarishi bog'liq bo'lishi mumkin?  
 1) kraxmal; 2) nuklein kislota; 3) selluloza;  
 4) nukleoproteinlar; 5) lipoproteinlar; 6) glikogen; 7) DNK  
 A) 4, 5    B) 1, 3, 6    C) 2, 5, 7    D) 6, 7
- 34.** Hujayrasida turgorlik holatini ta'minlovchi organoidi bo'lgan zaharsiz organizmlarni aniqlang.  
 1) iloq; 2) korall aspidi; 3) belyanka; 4) mastak; 5) g'umay;  
 6) oleandr; 7) kampirchopon; 8) oynasimon kapalak; 9) qora ilon; 10) qo'ng'rbosh; 11) gelikonius  
 A) 4, 6, 7    B) 1, 5, 10    C) 1, 2, 9, 11    D) 3, 5, 7, 8
- 35.** Quyonsuyak hujayrasida sodir bo'ladigan mitoz jarayonining profaza va metafaza bosqichlari uchun umumiyl holatlarni aniqlang.  
 1) xromosomalar mikroskopda ko'rindi; 2) axromatin ipchalar mavjud; 3) yadro qobig'ining parchalanishi;  
 4) xromosomalarning kaltalashib yo'g'onlashuv; 5) har bir xromosoma ikkita xromatiddan iborat; 6) xromosomalar orasidagi masofa bir xil; 7) xromatidlar birlamchi belbog' bilan birikkan; 8) xromatidlar yelkalarining bir-birdan itarilishi  
 A) 1, 4, 5, 8    B) 1, 3, 7, 8    C) 2, 3, 4, 6    D) 2, 4, 5, 7
- 36.** Drozofilada ko'zning oq rangda bo'lishi retsessiv, qizil rangda bo'lishi dominant hamda jinsga bog'liq holda irlsiylanadi. Erkak drozofila oq ko'zli bo'lsa, gametogenezi jarayonida ikkita birlamchi jinsiy hujayradan hosil bo'lgan spermatozoidlarning nechtasi shu retsessiv genga ega bo'ladi?  
 A) 4 ta    B) 1 ta    C) 0 ta    D) 2 ta
- 37.** Otarali gomozigota qo'yko'z, silliq sochli, sepiksiz, onalari esa ko'kko'z, jingalak sochli, gomozigota sepkilli bo'lgan erkak va ayolning nikohidan tug'ilishi ehtimoli bo'lgan farzandlarning quyidagi har bir fenotipi bo'yicha genotiplari sonini aniqlang.  
 1) qo'yko'z, jingalak soch, seckilli; 2) qo'yko'z, silliq soch, seckilli; 3) ko'kko'z, silliq soch, seckilli; 4) qo'yko'z, to'lqinsimon soch, seckilli; 5) ko'kko'z, jingalak soch, seckilli; 6) qo'yko'z, to'lqinsimon soch, sepiksiz  
 A) 1, 2, 5 - to'rt xil; 3, 4, 6 - ikki xil  
 B) 1, 4 - to'rt xil; 2, 3, 6 - ikki xil  
 C) 1, 2, 4 - to'rt xil; 3, 5, 6 - ikki xil  
 D) 3, 4 - to'rt xil; 2, 5, 6 - ikki xil
- 38.** Rezavor meva hosil qiladigan o'simlik navlarini aniqlang.  
 1) Zarg'aldoq; 2) Vatan; 3) Farhod; 4) Sohibi; 5) Gultish;  
 6) Qozidastor; 7) Buvaki; 8) Zarmiton; 9) Obidov;  
 10) Kattaqo'rg'on.  
 A) 5, 7, 8, 10    B) 1, 2, 7, 8    C) 4, 5, 7, 10    D) 1, 3, 6, 9
- 39.** Tubida kalta moyacha joylashgan, barglari seret, shakli o'zgargan novdani belgilang.  
 A) ildizmeva    B) ildizpoya    C) piyozbosh    D) tugunak
- 40.** Usneyaga xos tuzilmalarini belgilang.  
 1) poya; 2) ildiz; 3) barg; 4) rizoid; 5) spora; 6) mitseliy;  
 7) gifa  
 A) 1, 3    B) 1, 4, 7    C) 5, 6    D) 2, 5
- 41.** Ulotriks (I) va nostok (II) uchun xos bo'lgan belgilarni toping.  
 1) hujayra markazi hujayra bo'linishida ishtirot etadi;  
 2) tarkibida xlorofill pigmenti mavjud; 3) erkin azotni o'zlashtiradi; 4) irlsiy material yadroda joylashgan;  
 5) donador endoplazmatik to'rda oqsillar sintezlanadi;  
 6) mitoxondriyada kislorodli oksidlanish sodir bo'ladi  
 A) I-4, 6; II-2, 3    B) I-3, 5; II-2, 4    C) I-3, 6; II-4, 5  
 D) I-1, 4; II-5, 6
- 42.** Qaysi javobda o'simliklarni sistematikasini kichik sistematik guruhsdan katta sistematik guruhga qarab to'g'ri ketma-ketlikda ko'rsatilgan?  
 1) tokdoshlar; 2) terakbargli liftok; 3) magnoliyasimonlar;  
 4) ikki urug'pallalilar; 5) liftok; 6) magnoliyatoifalar;  
 7) yopiq urug'lilar; 8) qoqio'tdoshlar; 9) madaniy tok  
 A) 2, 9, 8, 3, 7    B) 5, 2, 1, 4, 7    C) 2, 5, 1, 4, 6  
 D) 5, 2, 1, 3, 6
- 43.** Tabiiy holda uchraydigan dorivor o'simliklarni ular mansub bo'lgan oila nomi bilan to'g'ri juftlab ko'rsating.  
 1) sebarga; 2) dorivor gulxayri; 3) g'umay; 4) bo'yimodaron;  
 5) yerbag'ir tugmachagul; 6) mingdevona; 7) qo'ng'rbosh;  
 8) bo'znoch; 9) bangidevona  
 A) 1, 4-murakkabguldoshlar; 3, 7-bug'doydoshlar;  
 5, 8-gulxayridoshlar  
 B) 1-dukkakdoshlar; 5-tugmachagul; 8-murakkabguldoshlar  
 C) 1-dukkakdoshlar; 3, 7-bug'doydoshlar;  
 4, 6, 9-murakkabguldoshlar  
 D) 2, 5-gulxayridoshlar; 4, 8-murakkabguldoshlar;  
 6-ituzumdoshlar
- 44.** Qaysi javobda voyaga yetish davrida tana tuzilishi va hayot kechirish tarzida katta o'zgarish sodir bo'lmaydigan umurtqasizlar to'g'ri ko'rsatilgan?  
 1) chigirtka; 2) ninachi; 3) triton; 4) qandala; 5) suvarak;  
 6) kuya; 7) baqa  
 A) 2, 5, 6    B) 1, 2, 5, 6    C) 2, 3, 4, 7    D) 1, 4, 5
- 45.** Lansetnik haqidagi noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
 A) kislorod bilan to'yingan qon qorin aortasi orqali oldinga oqadi  
 B) bosh skeletsizlar kenja tipiga mansub  
 C) terisi ostidagi yorug'lik sezuvchi hujayralar ko'rish vazifasini bajaradi  
 D) ayirish sistemasi va muskullari tuzilishi bilan xordalilardan farq qiladi
- 46.** Lososga xos bo'lgan belgilari ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 1) kamar suyaklari umurtqa pog'onasiga tutashmagan;  
 2) tana harorati tashqi muhitga bog'liq emas;  
 3) gastrulyatsiya jarayonida uch qavatli murtak varaqlari hosil qiladi; 4) embrional davrida jabra mavjud bo'ladi;  
 5) ko'payishi tashqi urug'lanish orqali amalga oshadi;  
 6) homilasi bachadonga yo'ldosh orqali bog'langan  
 A) 2, 4    B) 2, 6    C) 1, 5    D) 3, 6
- 47.** Oqqushning sistematik o'rni to'g'ri berilgan javobni toping.  
 1) oqqushlar turkumi; 2) g'ozsimonlar turkumi; 3) suv qushlari sinfi; 4) xordalilar tipi; 5) boshskeletlilar kenja tipi;  
 6) qushlar sinfi; 7) boshskeletsizlar kenja tipi  
 A) 2, 6, 5, 4    B) 1, 6, 5, 4    C) 2, 3, 7, 4    D) 1, 3, 4, 7
- 48.** Nutriya, sug'ur, jayra uchun umumiyl xususiyatlarini aniqlang.  
 A) qoziq va oziq tishlari rivojlanmagan  
 B) oziq va qoziq tishlari rivojlangan  
 C) kurak va oziq tishlari rivojlanigan  
 D) kurak va qoziq tishlari rivojlanigan
- 49.** Sog'lom odam umurtqa pog'onasining bo'yin lordozida nechta umurtqa suyaklari qatnashadi?  
 A) 5    B) 17    C) 7    D) 12

50. Odamda uchraydigan quyidagi kasallikkarni qaysi organlar sistemasida uchrashiga qarab to'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.  
 1) nefrit; 2) zotiljam; 3) tireotoksikoz; 4) kolit; 5) ganglionit  
 A) 1, 2-nafas olish sistemasi; 3-hazm qilish sistemasi;  
 4-endokrin sistemasi; 5-siyidik ayirish sistemasi  
 B) 1-siyidik ayirish sistemasi; 2-nafas olish sistemasi;  
 3-endokrin sistemasi; 4-hazm qilish sistemasi; 5-nerv  
 sistemasi  
 C) 1-hazm qilish sistemasi; 2-nafas olish sistemasi; 3-endokrin  
 sistemasi; 4, 5-siyidik ayirish sistemasi  
 D) 1, 2-nafas olish sistemasi; 3-endokrin sistemasi; 4-hazm  
 qilish sistemasi; 5-siyidik ayirish sistemasi
51. Eshitish(a) va vestibulyar (b) retseptorlardagi qo'zg'alishning o'tish yo'llari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?  
 1) sezuvchi nerv tolasi; 2) bosh miya katta yarim sharları;  
 3) vestibulyar nerv; 4) o'rta miya; 5) miyacha; 6) oraliq  
 miya; 7) miya ko'prigi  
 A) a - 1, 7, 4, 2; b - 1, 7, 5, 2  
 B) a - 1, 7, 6, 4, 2; b - 1, 7, 4, 2  
 C) a - 1, 7, 6, 4, 2; b - 3, 5, 7, 2  
 D) a - 1, 4, 7, 2; b - 3, 5, 7, 6, 2
52. Birinchi signal sistemasining (a) va ikkinchi signal  
 sistemasining (b) shartli reflekslarini aniqlang.  
 1) svetoforning yashil chirogi yonganda yo'lni kesib o'tish;  
 2) yaxshi xabarni eshitganda xursand bo'lish; 3) taomning  
 nomini eshitganda odamda so'lak ajralishi; 4) qo'ng'iroqning  
 tovushini eshitganda darsga kirish; 5) jo'ja yeb bo'ladijan va  
 yeb bo'lmaydigan narsalarni farqlashi; 6) predmetning  
 yozma tavsifiga ko'ra uni taniy bilish; 7) ovqatning hidini  
 sezganda so'lak ajralishi; 8) eshitgan hikoyani yodda saqlash  
 A) a - 4, 5, 7; b - 2, 3, 6, 8    B) a - 3, 6, 8; b - 1, 4, 5, 7  
 C) a - 2, 6, 8; b - 3, 4, 7    D) a - 3, 4, 7; b - 2, 6, 8
53. Qaysi javobda kuksioniya o'simligiga xos aromorfoz  
 ko'rsatilgan?  
 A) rizoidning paydo bo'lishi    B) poyanining paydo bo'lishi  
 C) barglarning paydo bo'lishi  
 D) sporalarining paydo bo'lishi
54. Peshonasi past, qosh usti suyagi bo'rtib chiqqan, pastki jag'i  
 katta, tishlari yirik, iyagi rivojlannagan, miyasining hajmi  
 $850-1220 \text{ sm}^3$  bo'lgan. Ushbu ta'rif odamning qaysi  
 ajodolariga mansub?  
 A) pitekantrop    B) kromanyon    C) neandertal  
 D) sinantrop
55. Quyida keltirilgan hayvonlar qushlar (a), sudralib  
 yuruvchilar (b), suvda ham quruqlikda yashovchilar (c)  
 sinflariga ajratib ko'rsatilgan javobni belgilang.  
 1) kazuar; 2) iguana; 3) lira; 4) povituxa; 5) xameleon;  
 6) agama; 7) sezarka; 8) kvaksha; 9) salamandra  
 A) a - 1, 5, 7; b - 3, 4, 6; c - 2, 8, 9  
 B) a - 2, 5, 6; b - 4, 8, 9; c - 1, 3, 7  
 C) a - 1, 3, 7; b - 2, 5, 6; c - 4, 8, 9  
 D) a - 2, 3, 7; b - 1, 5, 9; c - 4, 6, 8
56. Biosfera haqidagi qaysi ma'lumot noto'g'ri ekanligini  
 aniqlang.  
 A) Biosfera - tirik organizmlar yashaydigan, ular faoliyati  
 natijasida tinmay o'zgaradigan sayyoramiz qobig'ining bir  
 qismidir  
 B) Sayyoramizda yashaydigan faqat hayvon va  
 o'simliklarning yig'indisi biosferaning tirik moddasini  
 tashkil qiladi  
 C) Biosferadagi modda va energiyaning biotik davriy  
 aylanishi hamma tirik organizmlar ishtirokida kechadi  
 D) Biosferaning eng yuqori chegarasida noqulay sharoitga  
 o'ta chidamli aeroplanktonlar uchraydi
57. Ma'lum iRNK tarkibidagi nukleotidlarning 40%ini Adeninli,  
 30%ini Guaninli nukleotidlar tashkil qiladi. Sitozinli va  
 Uratsilli nukleotidlar miqdori teng bo'lsa, shu iRNK asosida  
 teskarri transkripsiyalangan DNK fragmentidagi Timinli  
 nukleotidlar necha foizni tashkil etadi?  
 A) 27,5    B) 22,5    C) 55    D) 15
58. Oqsildagi peptid bo'g'lar soni 449 ta bo'lsa, shu oqsil  
 sinteziga asos bo'lgan DNK qo'sh zanjiri tarkibidagi fosfat  
 kislotasi qoldiqlari sonini (a) va DNKnинг uzunligini (b)  
 aniqlang. DNK tarkibidagi nukleotidlar orasidagi masofa  
 $0,34 \text{ nm}$  ga teng.  
 A) a - 2700; b - 459 nm    B) a - 2070; b - 449 nm  
 C) a - 2070; b - 549 nm    D) a - 2700; b - 449 nm
59. Dengiz cho'chqalarida yungning kaltaligi (A) yungning  
 uzunligi (a) ustidan dominantlik qiladi. Dengiz  
 cho'chqalarining bir populyatsiyasida A geni 60 foiz va a geni  
 40 foizni tashkil qiladi. Agar geterozigotali organizmlar  
 o'zarlo chatishirilishidan 1800 ta individ olingan bo'lsa,  
 shulardan nechtasining yungi geterozigotali kalta ekanligini  
 aniqlang.  
 A) 648    B) 864    C) 1512    D) 288
60. Daltonizm va shabko'rlikni yuzaga chiqaruvchi retsessiv  
 genlar X xromosomada joylashgan bo'lib, birikkan holda  
 irlsylanadi. Onasi shabko'rlik bilan, otasi esa daltonizm bilan  
 kasallangan, o'zining ko'rish qobiliyati normal bo'lgan ayol  
 faqat shabko'rlik bilan kasallangan erkakka turmushga  
 chiqdi. Agar ayolda krossingover 40% ga teng bo'lsa, bu  
 oilada qizlarning ikki belgi bo'yicha sog'lim tug'ilish  
 ehtimolligini (%) aniqlang. Erkaklarda krossingover  
 kuzatilmagan.  
 A) 65    B) 35    C) 25    D) 75

## KIMYO

61. Tarkibi hajm bo'yicha 25% kislород va noma'lum gazdan  
 iborat aralashmaning massasi havoning massasiga teng  
 bo'lsa, noma'lum gazni toping.  
 A)  $\text{Cl}_2$     B)  $\text{O}_3$     C)  $\text{N}_2$     D)  $\text{H}_2$
62. 109,2 g ikki valentli metall nitrati uzoq vaqt qizdirilganda  
 $78,96 \text{ g}$  suvsiz tuz qizdirish davom ettirilganda  $33,6 \text{ g}$  metall  
 oksidi qattiq qoldiq hosil bo'lsa, kristallogidratni formulasini  
 aniqlang.  
 A)  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$     B)  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_3 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$   
 C)  $\text{Fe}(\text{NO}_3)_3 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$     D)  $\text{Fe}(\text{NO}_3)_3 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$
63. Bosh va orbital kvant sonlari ayirmasi 4 ga teng bo'lgan  
 energetik pog'onachani belgilang.  
 A) 6d    B) 5d    C) 6f    D) 5s
64. 3-energetik pog'onasida 6 ta d-elektroni bo'lgan atomning  
 $11,2 \text{ g}$  namunasida necha dona neytron bo'ladi? (atom  
 $A_{(r)} = 56$ )  
 A)  $48,16 \cdot 10^{23}$     B)  $42,14 \cdot 10^{23}$     C)  $36,12 \cdot 10^{23}$   
 D)  $24,08 \cdot 10^{23}$
65. Molekular kristall panjarali moddalar qatorini ko'rsating.  
 A)  $\text{S}_8$ ,  $\text{O}_3$     B)  $\text{Si}$ ,  $\text{Ge}$     C)  $\text{NaCl}$ ,  $\text{Fe}$     D)  $\text{CO}_2$ ,  $\text{Si}$
66. Vodorod bromiddagi bog' uzunligi  $0,135 \text{ nm}$ , brom  
 molekulasi dog'li bo'g' uzunligi esa  $0,17 \text{ nm}$ . Ushbu  
 ma'lumotlardan foydalaniib vodorod molekulasi dog'li  
 uzunligini ( $\text{nm}$ ) hisoblang.  
 A) 0,114    B) 0,085    C) 0,10    D) 0,05
67.  $\text{N}_2 + \text{H}_2 \leftrightarrow \text{NH}_3$  reaksiya sistemasida bosim 2 marta  
 oshirildi. Sistema harorati  $10^\circ\text{C}$  dan necha gradusgacha  
 o'zgartirilganda to'g'ri reaksiya tezligi 2 marta ortadi? ( $\gamma=2$ )  
 A) 20    B) -30    C) -20    D) 10

68. 4M  $HCl$  eritmasi tarkibida massa jihatdan 14,6%  $HCl$  bo'lsa, kislotaning zichligini ( $g/sm^3$ ) aniqlang.  
A) 0,73 B) 1,00 C) 1,46 D) 1,65
69. Metall nitrat tuzi o'z massasiga teng massali suvda eritilganda eritmadiagi nitrat anionlarining massa ulushi 31/82 ga teng bo'ldi. Tuzni aniqlang. ( $\alpha=1$ , gidroliz jarayonini hisobga olmang)  
A)  $Mg(NO_3)_2$  B)  $Ca(NO_3)_2$  C)  $KNO_3$  D)  $NaNO_3$
70. Quyidagi qaysi tuzlarning eritmasi ishqoriy muhitga ega?  
A)  $NH_4CN$  va  $Na_2S$  B)  $KCN$  va  $Na_2S$   
C)  $KNO_3$  va  $NH_4Cl$  D)  $Ba(CN)_2$  va  $KCl$
71. 0,6 mol  $X(NO_3)_3$  tuz suvda eritishidan olingan eritmada jami ion va molekulalar soni  $1,8 \cdot N_A$  dona bo'lsa va tuzning dissotsialanishidan olingan  $X^{3+}$  kationining massasi 10,8 g ga teng bo'lsa, noma'lum metallni aniqlang. (tuzning gidrolizlanishini va suvning dissotsialanishini hisobga olmang)  
A)  $Fe$  B)  $Cr$  C)  $Mn$  D)  $Al$
72.  $H_2SO_3 + H_2SO_4 + K_2Cr_2O_7 \rightarrow \dots$  reaksiya tenglamasini tugallang va  $S^{4+}$  ning qanday oksidlanish darajasiga o'tishini aniqlang.  
A) 0 B) +2 C) -2 D) +6
73. 46,4 g noma'lum metall qo'sh oksidi  $H_2$  yordamida qaytarilganda 14,4 g suv hosil bo'ldi. Metallni toping.  
A)  $Co$  B)  $Fe$  C)  $Pb$  D)  $Mn$
74. Bir metall tuzining suvdagi eritmasi orqali 5 soat davomida 2,68 amper tok kuchi o'tkazilsa, 12,8 g metall ajralib chiqadi. Tokka nisbatan unum 80% bo'lsa, metallning kimyoviy ekvivalentini aniqlang.  
A) 29 B) 26 C) 32 D) 28
75. Kompleks tuz quyidagi qaysi moddalarning ta'sirlashuvidan hosil bo'ladi?  
A)  $Sr(OH)_2$  va  $KOH$  B)  $Al(OH)_3$  va  $H_2SO_4$   
C)  $KOH$  va  $Zn(OH)_2$  D)  $NaOH$  va  $H_3PO_4$
76.  $RbNO_3$  va  $BaSO_3$  dan iborat aralashma qattiq qizdirilganda hosil bo'lgan gazlar  $Ar$  dan 25% ga og'ir bo'lsa, aralashma massasi necha martaga kamayadi?  
A) 1,25 B) 2,5 C) 1,5 D) 1,3
77. IIA guruhga mansub metall oksidida kislorodning massa ulushi metallnikidan katta. Metall tarkibida nechta s-elektron mavjud?  
A) 7 B) 4 C) 5 D) 9
78. Temir va misning 300 g aralashmasiga aralashma massasining 2/3 qismiga teng temir qo'shilganda misning massa ulushi 16% ga kamaygan bo'lsa, dastlabki aralashmada  $\omega\%(Fe) - \omega\%(Cu)$  ayirma nechaga tengligini aniqlang.  
A) 20 B) 60 C) 40 D) 1,5
79. Sxemadagi barcha noma'lum moddalar tarkibida azot borligi ma'lum bo'lsa, A, C va F moddalarini aniqlang.  

$$\begin{array}{c} H_2 + N_2 \xrightarrow{t^o, P} A \xrightarrow{O_2, Kat} B \xrightarrow{O_3} C \xrightarrow{O_2 + H_2O} D \xrightarrow{A} E \xrightarrow{t^o} F \\ 1) NH_3; 2) NO_2; 3) NO; 4) HNO_2; 5) HNO_3; \\ 6) NH_4NO_3; 7) N_2O; 8) N_2 \end{array}$$
  
A) 1, 8 B) 4, 6 C) 1, 2, 7 D) 5, 6
80. 1000 g 22,04%li natriy hidrofosfat eritmasiga yetarli miqdorda 100 ml ortofosfat kislotasi eritmasidan qo'shildi. Bunda olingan eritmadiagi natriy hidrofosfat tuzining massa ulushi natriy hidrofosfat tuzining massa ulushidan 4 marta kam bo'ldi. Qo'shilgan fosfat kislotasi eritmasining molyarligini ( $M$ ) aniqlang.  
A) 2 B) 4 C) 1 D) 3

81. Agar reagent yangi bog' hosil qilish uchun juft elektron bermasa, bunday reagent ... reagent deyiladi.  
A) elektrofil B) liofil C) gidrofil D) nukleofil
82.  $CH_4$  va  $CD_4$  gazlar aralashmasida uglerodning massa ulushi 65% ni tashkil qilsa, aralashmadagi  $CH_4$  ning massa ulushini (%) hisoblang.  
A) 33,3 B) 44,4 C) 66,6 D) 55,5
83. Benzil radikali tarkibidagi proton, neytron va elektronlar soni keltirilgan qatorni belgilang.  
A) 49; 42; 49 B) 49; 42; 48 C) 49; 42; 50 D) 50; 6; 49
84. Noma'lum alken tarkibida  $sp^2$ -gibrif orbitallar sonining  $sp^3$ -gibrif orbitallar soniga nisbati 3/8 ga teng bo'lsa, alkenni aniqlang.  
A) geksen B) propen C) buten D) penten
85. Butan kislotasi molekulasida  $\sigma$ - va  $\pi$ -bog'lar soni nechta?  
A) 8:2 B) 13:1 C) 11:2 D) 10:1
86. 18 g propanol-1 bilan 0,5 mol natriyning o'zaro ta'sirlashuvini natijasida qancha (g) natriy propilat olish mumkin?  
A) 21 B) 20 C) 24,6 D) 26
87. Glukoza namunasi teng ikki qismiga ajratildi va birinchi qismi moy kislotali, boshqasi sut kislotali bijg'itildi. Agar har ikkala reaksiyalarda hosil bo'lgan kislotalar massalari teng, hamda birinchi reaksiya unumi 75% bo'lsa, ikkinchi reaksiya unumini toping.  
A) 48,9 B) 73,3 C) 36,7 D) 50
88. Nemis kimyogari F. Vyoler 1828-yilda inson va hayvon a'zosida hosil bo'ladigan mochevinani qaysi moddadan laboratoriya sharoitida sintez qildi?  
A) ditsian B) sianid kislotasi C) ammoniy sianat  
D) kalij sianid
89. Olti a'zoli bitta geteroatomli birikmani ko'rsating.  
A) oksazol B) furan C) purin D)  $\alpha$ -glukoza
90. Indol molekulasini qaysi halqalarning kondensiranishidan hosil bo'lgan?  
A) benzol va piridin B) pirimidin va imidazol  
C) piridin va imidazol D) benzol va pirrol